

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI  
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**Yu.A. Ermatov**

**60811500-ZOOINJENERIYA (TURLARI BO‘YICHA) TA‘LIM  
YO‘NALISHI, 4-BOSQICH 401-403-GURUH TALABALARIGA  
“PARRANDACHILIK” FANIDAN “KURKA, O‘RDAK, G‘OZ VA  
SESARKALARANI OZIQLANTIRISH” MAVZUSIDA TAYYORLANGAN  
MA‘RUZA MASHG‘ULOT ISHLANMASIGA**

**Samarqand- 2025**

**Tayyorladi:**

**Yu.A.Ermatov - “Xususiy zootexniya va yaylov chorvachiligi” kafedrasida  
katta o‘qtuvchisi b.f.n.**

**Taqrizchilar:**

**B.Djambilov - Hayvonlar genetikasi, urchitish va oziqlantirish  
texnologiyasi ” kafedrasida dotsenti**

**Z.Klichev - Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ITI  
q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim**

<b>Mavzu:</b>	<b>Kurka, o‘rdak, g‘oz va sesarkalarani oziqlantirish.</b>
---------------	--

### O‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi

<b>Vahti 80 minut</b>	<b>Talabalar soni 81 nafar</b>
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Vizual - ma’ruza
O‘quv mashg‘ulotining o‘quv elementi	1. Kurka, o‘rdak, g‘oz va sesarkalar uchun beriladigan oziqa turlari va me’yorlar oziqa raqobati va tayyorlash tartiblari.. 2. Oziqlantirishning parranda mahsuldorligini ko‘paytirishdagi ahamiyati.
<p><b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b> Tanlash, kelib chiqish, shaxsiy mahsuldorlik, avlodlar sifati, tirik vazn, kunlik semirish, sutdorlik, sut sifati, texnologik belgilar, yakka, guruhlab, bonitirovka, nasl guruhi, boshqa xo‘jalik guruhi, puchak guruhi.</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘rdak va g‘ozlarni oziqlantirish haqida tushuncha berish;</li> <li>- kurka va sesarkalarni oziqlantirish haqida tushuncha berish;</li> </ul>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari :</b></p> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-parranda oziqalarini tavsiflaydi,</li> <li>-oziqa tiplarini aytadilar,</li> <li>- oziqlantirishni mahsuldorlikka bog‘liqligini so‘zlaydilar.</li> </ul>
<b>O‘qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma’ruza, BBxB, blits – so‘rov, bayon qilish, klaster, “xa-yo‘q” texnikasi.
<b>O‘qitish vositalari</b>	Ma’ruzalar matni, vedioproektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
<b>O‘qitish shakli:</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O‘qitish shart-sharoiti</b>	Vedioproektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya doska va bo‘r.

## O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

	<b>O‘qituvchi</b>	<b>Talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1 Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutiladigan natijalar ma’lum qilinadi.	1.1 Eshitadi, yozib oladi.
<b>2-bosqich. Asosiy (60 min.)</b>	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol - javob o‘tkaziladi.</p> <p>-Parrandalarno oziqlantirish tiplari? -oziqlantirish usullari? - Qishloq xo‘jalik parrandalarini oziqlantirishdagi farqlar?</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishni davom etadi.</p> <p>2.3. Kurkalar va sesarkalarda ota-onalik galasini oziqlantirish.</p> <p>2.4. G‘oz va o‘rdak galasini mahsuldorlik ko‘rsatkichlari oziqlantirishga bog‘liqligi ta’riflanadi</p>	<p>2.1 Eshitadi, takrorlamagan xolda navbat bilan tushunchalarini bayon etadi. O‘ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2 Jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib asosiy joylari rini yozib oladi.</p> <p>2.3 Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>2.4. Taklifni yozib oladi, misollar keltiradi.</p>
<b>3 - bosqich. YAkuniy (10 min.)</b>	<p>3.1 Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalaga qaratadi.</p> <p>Faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa: “Qishloq xo‘jalik parrandalarini oziqlantirish” haqida esse yozing</p>	<p>3.1 Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2 Topshiriqni yozib oladi.</p>

## **Mavzu: Kurka, o‘rdak, g‘oz va sesarkalarani oziqlantirish.**

### **Reja :**

1. Kurka, o‘rdak, g‘oz va sesarkalar uchun beriladigan oziqa turlari va me‘yorlar oziqa raqobati va tayyorlash tartiblari.

2. Oziqlantirishning parranda mahsuldorligini ko‘paytirishdagi ahamiyati.

**Mavzuni o‘rganish uchun tayanch iboralar.** Omixta yem, meyyor, ratsiyon, donli oziqlar, dukkakli oziqalar, shirali oziqalar, davrlar bo‘yicha oziqlantirish, shrotlar, kunjaralar, mineral oziqalar, oziqa qo‘shimchalari, vitaminlar.

**1-masala.** Kurkalar tovuqlardan farqli o‘laroq ozuqaga talabchan va badaniga tez yog‘ yig‘ish xususiyatiga ega. Ularni xilma - xil va sifatli emlar bilan oziqlantirish talab etiladi. Intensiv o‘shish davrida ularga oqsil va darmondorilar ko‘proq kerak bo‘ladi. Kurkalarining asosiy ozuqa tarkibini o‘tlar tashkil etishi sababli tovuqlarga qaraganda ular ko‘proq yaylovlardabadaniga tez yog‘ yig‘ish xususiyatiga ega. Ularni xilma - xil va sifatli emlar bilan oziqlantirish talab etiladi. Intensiv o‘shish davrida ularga oqsil va darmondorilar ko‘proq kerak bo‘ladi. Kurkalarining asosiy ozuqa tarkibini o‘tlar tashkil etishi sababli tovuqlarga qaraganda ular ko‘proq yaylovlarda oziqlanishga moslashgan. Yaylovlarda boqish vaqtida kurkalar bir kunda 400 gr ko‘k o‘t cho‘qib eydi.

### **1-jadval**

#### **Voyaga etgan kurkalar uchun rasion namunasi (foiz)**

<b>№</b>	<b>Rasion tarkibi</b>	<b>Miqdori (%)</b>
1	Makkajo‘xori va bug‘doy doni	65,8
2	Kungaboqar shroti	13
3	Ozuqabop xamirturush	4
4	Baliq uni	3
5	O‘t uni	5
6	Suyak uni	1
7	Bo‘r	3
8	Chig‘anoq, ozuqabop oxak	3,7
9	Osh tuzi	0,5
10	Premiks P 1 – 1	1
100 g. omuxta emdagi energiya almashinuvi:		kkal
kJ		280,4

1170	
Xom protein	16
Xom yog‘	3,2
Xom kletchatka	4,7
Kalsiy	2,8
Umumiy fosfor	0,7

## Yem ratsioni tarkibi va qo‘shimchalar



O‘rta vazn turidagi kurka makiyonlariga bir kunda muvozanatlashtirilgan ozuqa me‘yori 260 gr., og‘ir vaznli turi uchun 280 gr. va kurka xo‘rozlariga 510 – 560 gr. ni tashkil etadi. Oziqlantirish fronti voyaga etgan kurkalar uchun quruq turdagi oziqlantirishda 8 sm, omuxta ozuqa turida 20 sm, suv ichish fronti 4 sm bo‘lishi kerak.

O‘rdaklarni qanday oziqlantirsa bo‘ladi?

O‘rdaklar aralash uslubda oziqlantiriladi. Rasion tarkibiga: ko‘k ozuqalar, har xil ildizmevalilar, quruq va namlangan don qorishmalari, kelib chiqishi hayvonlarga oid ozuqalar, oshxona chiqindilari va mineralli qo‘shimchalar. O‘rdaklar uchun asosiy ozuqa bu – donlilar: arpa, sulu, makkajo‘xori, bug‘doy, mosh, tariq va boshqa donlar chiqindilari.

Arpani katta o‘rdakka va yosh o‘rdakka ham berish mumkin. U o‘rdaklar tanasini qoplovchi patlarning o‘sishi va tanani zich qoplashini ta‘minlaydi. Kunlik rasion tarkibidagi donlarning 30 – 40% ini tashkil etadi. Rasionga patlarning o‘sishini ta‘minlash va kannibalizm kasalligining oldini olish uchun 20% gacha suli

doni qo‘shiladi, bug‘doy donlarini katta yoshdagi o‘rdaklar rasioniga don qorishmalarini 35% miqdorida qo‘shish mumkin. Agar o‘rdaklar suv havzasida boqilsa, ular o‘zlariga hamma kerakli ozuqa moddalarini etarli miqdorda oladilar, shuning uchun kunlik rasion tarkibidagi donli konsentratlarni 30 – 50% gacha qisqartirish mumkin. Javdar chiqindilari to‘yimliligi bo‘yicha bug‘doyga tenglashtiriladi. Lekin o‘rdaklarga 6 – 10% miqdorida yig‘ishtirib olingan hosil 3 oydan keyin beriladi, chunki javdarning yangi olingan hosili o‘rdaklarning ichini suradi. O‘rdaklar lavlagi, sholg‘om, qovoq, kartoshkalarni ishtaha bilan iste‘mol qiladi. Oqsilga bo‘lgan talabni o‘rnini baliq, sut obrati va paxtasi hamda boshqa oqsilga boy ozuqalar bilan to‘ldirish mumkin.

## 2-jadval

### Kurkalar uchun ratsiyon

Ozuqa turi	Ozuqa miqdori (kunlik 1 boshga gr.da)	
	qishda	ёзда
Don uni (turli donlar)	120	130
Bug‘doy kepagi	30	30
Beda uni	20	
Dukkaklilar uni	15	15
Ko‘k ozuqa	100	
O‘stirilgan don	16	
Qaynatilgan kartoshka	50	
Sabzi	25	
Suyak uni	10	10
Plastin, Roboran	Instruksiya bo‘yicha	
Mayda tosh, ariq qumi	Erkin beriladi	

G‘ozlarni boqishda shaxsiy tomorqada va kichik fermalarda arzon mahalliy ozuqalardan – ko‘k massa, sabzi, kartoshka, qovoq, karam bargi, sholg‘om, lavlagi, ildizmevalilar bargi, beda va o‘t uni, omuxta siloslardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rasion tarkibi ularning mahsuldorligiga, yil mavsumiga va xo‘jalikdagi mavjud ozuqaga bog‘liq. Parrandani boqishda nasl oldi mavsumi va nasl mavsumida oziqlantirishga alohida e‘tibor beriladi. Tuxum qo‘yish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rila vaqtda g‘ozlar nasl mavsumidagi rasion bo‘yicha boqiladi. Qishda ko‘proq ozuqalardan sulu ma‘qul keladi. Makkajo‘xori va arpa donlari bilan boqilganda naslli parranda tez semirib, badanini yog‘ bosib ketadi. Tanasini yog‘ bosib ketgan g‘ozlarda go‘sht chiqindilari hajmi ko‘payadi. Bunday g‘ozlar urug‘lanmagan tuxum beradi. Lekin tanasini yog‘ bosib ketishining oldini

olaman deb, g'ozlarning ozib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Faqat yaxshi semizlikdagi parrandaning mahsuldorligi yuqori bo'ladi. Shuning uchun mahsuldorlik mavsumiga tayyorgarlik ko'rilayotganda donli ozuqalarga ko'proq beda yoki turli o'tlar pichani, bug'da yumshatilgan beda, silos va ildizmevalilar (kartoshka, lavlagi, sabzi) qo'shiladi. Kartoshkani xomligicha maydalab berish mumkin. Rasion tarkibida dukkakililar (no'xat, yasmiq), kunjara, shrot hamda kelib chiqishi hayvonlarga oid ozuqalar hajmini ko'paytirish mumkin. Nasl mavsumi fevral – mart oylari boshlanadi. G'ozlarga bir kunda 3 – 4 mahal ozuqa beriladi, shulardan ikki mahal nam qorishma, kechasiga don beriladi. G'ozlar organizmida mahsuldorlik davrida mineral modda almashinuvi kuchayadi, shuning uchun kerakli miqdorda kalsiy, fosfor va natriy moddalarini qabul qilish kerak bo'ladi. Rasionga maydalangan chig'anoq, ozuqabop ohak va bor 2,6 – 3 %, ftorsizlantirilgan fosfat – 0,8 – 3 %, osh tuzi 0,5 % gacha qo'shiladi.

### 3-jadval

#### Tirik vazni 5 – 5,5 kg bo'lgan g'ozlarga taxminiy rasion (1 boshga 1 kunda gr.da)

Ozuqa nomi	Bir oyda tuxum berish				
	3	6	9	12	15
Suli, don chiqindilari	60	70	80	90	100
Suli uni	24	26	32	36	40
Bug'doy uni	20	21	36	40	45
Bug'doy kepagi	50	50	50	50	50
Go'sht-suyak uni yoki kelib					
chiqishi hayvonlar oid ozuqa	-	4	6	9	12
No'xat kunjara va uni	5	6	9	12	15
Lavlagi, qovoq, sabzi	200	200	200	200	200

Xo'jalikda ozuqa komponentlari mavjud bo'lsa, omuxta emni o'zingiz tayyorlashingiz mumkin. Quyidagi jadvalda katta yoshdagi g'ozlar uchun omuxta em tarkibi berilgan. Maxsus omuxta em tayyorlash zavodlari, tsexlarida tayyorlangan omuxta emdan g'ozlarga mahsuldorlik davri uchun PK – 1 (tovuqlar uchun) ni tavsiya etish mumkin. Ularning tarkibida 16 – 17% oqsil, 1,05 – 1,09 MDj energiya almashinuvi mavjud.



**Katta yoshdagi g‘ozlar uchun omuxta emning taxminiy tarkibi (1 boshga 1 kunda gr.da)**

Komponentlar	Miqdori
Donli ozuqa (makkajo‘xori, bug‘doy, arpa, suli)	60
Bug‘doy kepagi	10
Kungaboqar shroti	3,6
Baliq uni	3,5
Go‘sh t – suyak uni	2
Ozuqabop xamirturish	1
Beda uni	20
Chig‘anoq, bo‘r	3,3
Osh tuzi	0,5
100 gr omuxta em tarkibi ( gr.):	
Xom oqsil	14,3
Kletchatka	6,3
Kalsiy	1,75
Fosfor	0,72
Natriy	0,39

**2-masala.** Kurkalarga ko‘katlar berishdan avval ko‘katlar (beda, qichitqio‘t, gorox, karam bargi, g‘ospanja, kungaboqar, lavlagi bargi, sabzi, turp, rediska, qoqio‘t, ismaloq) maydalab chopiladi yoki go‘sh t maydalagichdan o‘tkaziladi.

Ko‘k piyoz – juda foydali o‘simlik bo‘lib, ichak infeksiyon kasalliklari qo‘zg‘atuvchilaridan organizmni himoya qilish xususiyatlariga ega, ayniqsa uni birinchi kunlari berish katta foyda beradi. Ko‘k piyoz ertalab va kunduzi beriladi, kechasi berilganda kurka jo‘jalari o‘zlarini bezovta his etadi va suvga chanqoqlik boshlanadi.

Rasionga 12–15 kundan boshlab baliq yoki go‘sh t-suyak uni, baliq farshi, go‘sh t chiqindalari (hammasining o‘rnini tvorog bosishi mumkin) qo‘shish mumkin. Rasionga yana parlab yoki qaynatib pishirilgan kartoshka ham qo‘shiladi. Kartoshkani qaynatishdan oldin ko‘k o‘simtalari kesib tashlanadi, chunki ko‘k o‘simtalar tarkibidagi solanin moddasi zaharli hisoblanib, qaynatma suvini emga qo‘shib berganda parrandani zaxarlashi mumkin. Sabzini maydalab kurka jo‘jalarining birinchi kundan boshlab berish va uni asta-sekinlik bilan 50–100 gramgacha ko‘paytirib borish mumkin. Agar sabzi va kartoshka yo‘q bo‘lsa, ularning o‘rniga ko‘k o‘tlar berish tavsiya etiladi. Bundan tashqari yana olma, nok

qoldiqlari, siqma qoldiqlari, ozuqabop lavlagilarni ham berish mumkin. Gorox, dukkakililar oilasiga mansub o'simliklar donlarini kurkalarga berishdan oldin ular suvga ivitib qo'yiladi va past olovda eng kam miqdordagi suvda qaynatiladi. 2–3 haftadan boshlab yosh kurkalarning rasioniga suvda ivitib non xamirturushi, kunjara va shrotlar berish tavsiya etiladi. Nam em qorishmalari har kuni 2–3 mahal 30–40 daqiqa ichida eb tugatadigan miqdorda qilib beriladi. Har bir em berilgandan keyin emdonlar achib mog'orlab qolmasligi uchun yaxshilab yuviladi.

O'rdaklar qishda issiq namlangan em bilan boqiladi, lekin uning muzlab qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Bir kunda 3 mahal ozuqa beriladi, tuxum berish mavsumi boshlanishida 4 marta ozuqa beriladi.

O'rdaklar arpani yaxshi iste'mol qilmaydi. Shuning uchun arpa issiq suvda 10 – 20 soatga ivitib qo'yiladi va suvi bilan o'rdaklarga beriladi. O'rdaklar shishib qolgan arpani ishtaha bilan suvning ichida tutib eydi.

O'rdaklarga beriladigan rasion quruq moddasining 70 – 80% ini donlar, don chiqindilari, unli ozuqalar, 3 – 5% ini oqsilga boy bo'lgan o'simliklar, 2 – 5% ini kelib chiqishi hayvonlarga ozuqalar, 5 – 10% ini ko'k o'tlar, qovoq, ildizmevalilar va 2 – 4% ini mineral qo'shimchalar tashkil etadi.

**5-jadval**

**Ona o'rdaklarni oziqlantirish  
O'rdaklar uchun kunlik rasion (1 boshga gr.da)**

<b>Ozuqa turi</b>	<b>Bir oyda beradigan tuxum soni (dona)</b>				
	<b>0 - 3</b>	<b>12</b>	<b>15</b>	<b>18</b>	<b>21</b>
<b>Don aralashmasi</b>	50	60	75	80	87
<b>Makkajo'xori, arpa uni</b>	100	100	100	100	100
<b>Kunjara, shrot</b>	2,4	9,4	12	13,5	16,2
<b>Go'sht yoki baliq chiqindilari</b>	1,6	6,4	7,8	9,4	1,5
<b>Beda uni</b>	40	40	40	40	40
<b>Qaynatilgan kartoshka</b>	60	40	40	40	40
<b>Sabzi, yangi uzilgan ko'k o'tlar</b>	90	110	110	110	110

<b>Suyak uni</b>	1,1	1,4	1,5	1,5	1,7
<b>Chig‘anoq, bor</b>	5,8	8,4	9,2	10	10,9
<b>Osh tuzi</b>	1,1	1,4	1,5	1,5	1,7
<b>Jami</b>	<b>352</b>	<b>377</b>	<b>397</b>	<b>406</b>	<b>417</b>

Sesarkalarni 50 kunligidan boshlab, ya'ni ular yaylovda oziqlanishga ko'nikkanlaridan keyin ularga kuniga 2 mahal ertalab va kechqurun ozuqa beriladi yoki bunkerli emdonlarga solib qo'yiladi. Ozuqa hisobida yana don siniqlari, donlarni tozalash vaqtida chiqarib tashlangan yovvoyi o'tlar donlari aralashmasi va boshqalardan foydalanish mumkin. Ichimlik suvi parranda oldida har doim bo'lishi kerak. Yaylovda yuradigan sesarkalar ozuqaning aksariyat qismini yaylovdan topib yoydi. Katta yoshdagi tuxum bermaydigan sesarkalarni oziqlantirish nisbatan oddiy. Sesarkalarni sayr qildirish uchun etarli darajada yaylovlar bor joylarda kuniga bir mahal, faqat kechqurun don aralashmasi beriladi. Qishda rasionni 10 – 15 % ga qisqartirish mumkin.

Katta yoshdagi mahsuldor sesarkalarni tovuqlar rasioni bilan ham boqsa bo'ladi.

#### 6-jadval

**Don aralashmasi bilan boqilganda, 40 % ozuqa konsentrati ertalab va kechqurun beriladi, kunduzi 60 % maydalangan ozuqa konsentrati hoida beriladi (aralashma ko'rinishida).**

<b>Rasion tarkibi</b>	<b>Bir boshga kunlik ozuqa miqdori (gr.)</b>
Donli aralashmasi	95 gr.
Shu jumladan (%):	
Bug'doy	50
Arpa	10
Suli	20
Makkajo'xori	5
Kepak	5
Kungaboqar shroti	10
Ko'k massa va shirali ozuqalar	40 gr.
Baliq yoki go'sht – suyak uni	40 gr.
Chig'anoq, bo'r	5 gr.
Graviy (mayda tosh)	erkin

## **Nazorat savollari.**

1. Qishloq xo'jalik parrandalarini oziqlantirish asoslari, konsentrat omixta yemlar va ularning tarkibiy qismlari
2. Omixta yem me'yorlari, retseptlarini belgilash prinsiplari va andozalari.
3. Go'sht yo'nalishidagi parrandalarning davrlar bo'yicha oziqlantirish va uning ahamiyati.

### Mavzuga doir testlar:

- 1. O‘rdak va g‘oz tuxumlarida umumiy oqsili necha foizni tashkil etadi ?**
  - A.13.5-14.5 %
  - B.8.5-10.5 5 %
  - D.16.2-18.4 %
  - E.20.0-24.0 %
  
- 2. Kurka tuxumlarida umumiy oqsili necha foizni tashkil etadi ?**
  - A.13.1 %
  - B.16.5%
  - D.5.5 %
  - E.20.2 %
  
- 3. O‘rdak va g‘oz tuxumi sarig‘ini tarkibida o‘rtacha necha foizgacha protein bor?**
  - A.17.5-17.8 %
  - B.12.5-13.0 %
  - D. 20.0-21.0 %
  - E. 4.30.5-31.0 %
  
- 4. O‘rdak va g‘oz tuxumida quruq moddalar o‘rtacha necha foizni tashkil etadi ?**
  - A.30.3 ;29.4 %
  - B.50.0;45.3 %
  - D.10.0;15.0 %
  - E.40.3;48.0 %
  
- 5. Suvda suzib yashaydigan parrandalar (o‘rdak, g‘oz ) tuxumlarida necha % gacha suv bo‘ladi ?**
  - A.69.7-70.6 %
  - B.80.0-86.3 %
  - D.50.0-53.4 %
  - E.20.0-25.0 %
  
- 6. O‘rdak va g‘oz tuxumi sarig‘ini tarkibida o‘rtacha necha foizgacha yog‘ bor ?**
  - A.34.8-35.8 %
  - B.30.5-31.0 %
  - D.40.0-42.0 %
  - E.Umuman yog‘ bo‘lmaydi

**7. G'ozlarni jinsiy voyaga yetishi ( kun )?**

A.240-310 kun

B.100-150 kun

D.200-210 kun

E. 580-50 kun

**8. Kurkalarining jinsiy voyaga yetishi (kun ) ?**

A.200-250 kun

B.100-150 kun

D.50-100 kun

E.30-40 kun

**9. G'oz tuxumlarini suniy inkubatsiyalash davomiyligi ?**

A.29-30 kun

B.20-21 kun

D.27-28 kun

E.40-45 kun

**10. Tuxumdorligi 280 dona bo'lgan gibrid tovuqlarning har 10 dona tuxumiga qancha to'la ratsionli omixta yem sarflanadi?**

A.1,7 kg.

B.2,2 kg.

D.3,0 kg.

E.3,7 kg.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Islomxo‘jayev S.S., Boboyev K.X., G‘ulomov K. «Parrandachilikdan amaliy mashg‘ulotlar».Darslik. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 1996y.

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.

## **Axborot manbaalari**

12. [www.Ziyo.net.uz](http://www.Ziyo.net.uz)

13. [www.chorvador@mail.uz](mailto:www.chorvador@mail.uz)

14. [www/ Я фepмep.ru](http://www/Яфepмep.ru)

15. [www.e by.com](http://www.e by.com)

